

Kreditning to'liq qiymati

(raqam va so'z bilan yoziladi)

Moliyaviy iste'mol krediti shartnomasi № _____

20__ yil «__» _____

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki nomidan (keyingi o'rinlarda – Bank) 20__ yil ____
dagi ____-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ filiali
Chakana bo'limi boshlig'i _____ bir tomondan, hamda bundan buyon matnda «**Qarz
oluvchi**» deb yuritiluvchi, _____ yilda _____ viloyatida tug'ilgan, hozirda
_____ viloyati _____ tumani _____
QFY, _____ ko'chasi, ____-uy, ____-xonadonda istiqomat qiluvchi, 20__ yil «__» ____
_____ viloyati _____ tumani IIB _____
tomonidan berilgan, ____ seriya _____ raqamli pasportga ega bo'lgan fuqaro
_____ ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank Qarz oluvchiga iste'mol tovari sotib olish uchun moliyaviy iste'mol krediti (keyingi o'rinlarda – kredit) berish majburiyatini, Qarz oluvchi esa olingan kredit mablag'ini belgilangan muddatda qaytarish va kreditdan foydalanganligi uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Kredit bo'yicha to'lov iste'mol tovari bahosining 100% miqdorida naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

2. Kredit shartlari

2.1. Kredit summasi: _____ (_____) so'm.

2.2. Kreditdan foydalanish muddati: _____ (_____) oy.

2.3. Asosiy kredit hamda kreditga hisoblangan foizlarning qaytarilishi mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lov jadvaliga (1-ilovaga) muvofiq amalga oshiriladi.

2.4. Kredit bo'yicha foiz stavkasi: _____% (_____).

2.5. Foizlarni to'lash muddati: har oyning 5-sanasigacha.

2.6. Kreditning imtiyozli davri: _____ (_____) oy.

2.7. Kreditning maqsadi va obekti: _____

_____ sotib olish.

2.8. Kredit to'liq qiymati (KTQ):

Kredit foizi bo'yicha xarajat _____ (_____) so'm.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. Bankning majburiyatlari:

3.1.1. Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va shartlarda ushbu shartnoma kuchga kirgandan so'ng, besh bank ish kuni ichida kredit ajratish;

3.1.2. Olingan kreditni hisoblash uchun Qarz oluvchiga ssuda hisob raqamini ochish;

3.1.3. Qarz oluvchini Bank tomonidan kreditni muddatidan oldin undirish faktlari va sabablari haqida xabardor qilish majburiyatini oladi.

3.2. Qarz oluvchining majburiyatlari:

3.2.1. Kredit va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi hamda to'lanishini ta'minlash;

3.2.2. Kreditdan faqat mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan maqsadlarda foydalanish;

3.2.3. Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik, to'lovlilik, kredit qaytarilishining ishonchlilik va ta'minlanganlik talablariga rioya qilish;

3.2.4. Bank xodimlariga maqsadli tekshirishlar (kreditdan maqsadli foydalanish va tovarning butligi masalalari bo'yicha) o'tkazishlari uchun ruxsat berish majburiyatini oladi.

Maqsadli tekshirishlar muddati Qarz oluvchining roziligisiz Bank tomonidan belgilanadi.

3.2.5. Mazkur shartnoma kuchda bo'lgan davrda va Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar bo'lsa, Bankning oldindan roziligini olmasdan, Qarz oluvchi quyidagi harakatlardan birortasini **amalga oshirmasligi zarur:**

- boshqa banklardan kredit va qarz olish, uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil (yoki garant) bo'lish;

- kredit hisobiga sotib olingan iste'mol tovarning hammasini yoki bir qismini sotish yoki boshqa yo'llar bilan begonalashtirish, begona shaxslarga berish, ijara berish, garovga qo'yish va uchinchi shaxslar foydasiga o'z mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish;

3.2.6. Mazkur shartnoma bo'yicha bir yilda bir marta hisobot yilining 10-yanvariga qadar Bankka o'rtacha oylik ish haqi to'g'risida ma'lumotnomani taqdim etish;

3.2.7. Qarz oluvchining ish joyi, yashash manzili, familiyasi, ismi o'zgarganda 5 kun muddat ichida Bankni xabardor qilish;

3.2.8. Qarz oluvchi o'zining va Kafilning bankdagi barcha bank hisobvaraqlari (plastik karta, omonat va boshqa) to'g'risidagi ma'lumotlarni bankka taqdim etish;

3.2.9. Xalq bankining "Contact center" operatorlari qo'ng'iroqlariga xushmuomalalik bilan javob berish va muloqotda bo'lish hamda SMS xabarlarini ijobiy qabul qilish;

3.2.10. Telefon raqami o'zgargan hollarda, zudlik bilan Bankni xabardor qilish. Bunda, telefon raqami o'zgargan kundan boshlab ikki ish kunida Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Bankni xabardor qilish;

3.2.11. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'ziga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga va ulardan foydalanishga ushbu shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq o'z roziligini berish majburiyatlarini oladi.

3.3. Bankning huquqlari

3.3.1. Qarz oluvchi to'lovga layoqatsiz deb topilganda, kreditni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda, kreditdan maqsadsiz foydalanganda, shartnoma imzolangandan keyin taqdim etilgan kreditni qaytarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda hamda Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganidan so'ng Qarz oluvchi tomonidan kreditdan 1 oydan ko'p muddat davomida foydalanilmaganda (to'lov hujjatlarini taqdim etmaslik) ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish.

3.3.2. Kreditlash jarayonida ajratilgan kreditga tegishli bo'lgan holatlarni (kreditdan maqsadli foydalanish, kreditning ta'minlanganligi, kreditga layoqatligi va boshqalar) tahlil qilish.

3.3.3. Qarz oluvchini xabardor qilib, boshlang'ich foiz stavkasini Marka ziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda o'zgartirish. Boshlang'ich foiz stavkasini o'zgartirish Bankning mutlaq huquqi bo'lib, Qarz oluvchi foiz stavkasining Bank tomonidan bir tomonlama o'zgartirilishiga o'z roziligini bildiradi.

3.3.4. Bevosita Qarz oluvchi joylashgan yerda maqsadli tekshirishlarni amalga oshirish.

3.3.5. Quyidagi hollarda Qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to'xtatish va foizlarni hamda kredit bo'yicha asosiy qarzni muddatidan oldin, jumladan, undiruvni kredit ta'minotiga qaratish orqali undirish:

- kreditdan maqsadsiz foydalanilganda;

- ___ kundan ortiq muddatda kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlar to'lanmaganda;

- mazkur shartnomaga asosan Bank tomonidan monitoring o'tkazilishidan bo'yin tovlaganda (bosh tortganda);

- Qarz oluvchi tomonidan Bankka kredit hujjatlarini rasmiylashtirilayotganda taqdim etilgan ma'lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda;

- ajratilgan kreditning qaytarilishi turli sabablarga ko'ra ta'minlanmagan bo'lib qolgan hollarda, shuningdek, kredit qaytarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarilmaganda;

Bunday hollarda Bank oldindan 15 kundan ko'p bo'lma muddat ichida Qarz oluvchini ogohlantiradi, ammo Qarz oluvchining Bank tomonidan ogohlantirilmaganligi Bankning bundan buyon kreditlashni to'xtatish va foizlarni hamda kredit bo'yicha asosiy qarzni muddatidan oldin undirishga bo'lgan huquqiga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi.

3.3.6. Qarz oluvchining kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Banklararo kredit byurosiga taqdim etish.

3.3.7. Mazkur shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining muddati o'tgan qarzdorligi yuzaga kelgan hollarda, Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini (asosiy kredit, foiz, penya) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchi va Kafilning barcha hisobvaraqlari (plastik karta, omonat va b.) dan akseptsiz tartibda (roziligisiz) ko'chirib (undirib) olish;

3.3.8. Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga to'lov jadvaliga muvofiq to'lovlar yaqinlashayotganligi haqida 10 kun oldin SMS xabarlar yuborish;

3.3.9. Qarz oluvchi tomonidan kredit va unga hisoblangan foizlar mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmagan hollarda, Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS eslatmalar yuborish. Shuningdek, Qarz oluvchi bilan shaxsan muloqot olib borgan holda to'lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi lozimligi haqida, hamda aks holda Qarz oluvchiga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi mumkinligi to'g'risida tushuntirish ishlarini amalga oshirish, shuningdek, shu mazmunda SMS xabarlar yuborish;

3.3.10. Qarz oluvchining muddati o'tgan qarzdorliklarini majburiy ravishda undirish maqsadida, sudga da'vo arizasi kiritilganligi to'g'risida Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS xabarlarni yuborish;

3.3.11. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Qarz oluvchiga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanish huquqlariga ega.

3.4. Qarz oluvchining huquqlari:

3.4.1. Oldindan (5 bank ish kuni davomida) Bankni xabardor qilib, kredit olishdan to'liq yoki qisman voz kechish;

3.4.2. Kreditni muddatidan oldin hech qanday jarimalarsiz qaytarish.

3.4.3. Kreditlash va hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish. Shuningdek, Xalq bankining "Contact centri" orqali bankdan olingan kredit yuzasidan tegishli ma'lumotlarni olish.

4. Hisob-kitoblar tartibi va shartnoma bahosi

4.1. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida Bank kredit summasini Qarz oluvchining ssuda hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan iste'mol tovari sotib olish uchun to'laydi.

4.2. Qarz oluvchi berilgan kredit uchun foizlarni Bankka mazkur shartnomada belgilangan muddatda va miqdorda Bank amalga oshirgan hisob-kitob asosida to'laydi.

4.3. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar har kuni Bank tomonidan hisoblab boriladi.

4.4. Qarz oluvchi shartnoma shartlariga asosan ajratilgan kreditni hamda u bo'yicha hisoblangan foizlarni naqd pul to'lash yo'li bilan amalga oshiradi. Avval foizlar bo'yicha hisoblangan qarzdorlik, keyin kredit bo'yicha asosiy qarz qaytariladi (qoplanadi).

4.5. Mazkur shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan hollarda, Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchining hisobvarag'i (plastik karta, omonat va b.)dan akseptsiz tartibda (roziligisiz) ko'chirib (undirib) oladi, shuningdek, qarzdorliklar Notariusning ijro xati orqali undirilishi mumkin. Bank bu haqda Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS xabarnoma yuboradi.

4.6. Qarz oluvchining krediti b'uyicha majburiyatlarini bajorish uchun mablag'lar etarli b'ulmagan hollarda, qarzdorlik kuyidaagi navbatda qoplanadi:

Birinchi navbatda asosiy qarz b'uyicha muddati u'tgan qarzdorlik va muddati u'tgan foiz t'ulovlari mutanosib ravishda;

Ikkinchi navbatda joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz b'uyicha qarzdorlik;

Uchinchi navbatda neustoyka (jarima, penya) va undan keyingi navbatda Qarz oluvchining qarzdorlikni uziish bilan bo'g'lik b'ulgan bo'shqa xarajatlarini.

5. Kredit qaytarilishining ta'minlanishi

5.1. Mazkur shartnoma asosida ajratilgan kredit, (1). _____ yilda tug'ilgan fuqaro _____ (2). _____ yilda tug'ilgan fuqaro _____ ning ajratilayotgan kredit summasining 125%, ya'ni _____ (_____) so'm miqdoridaagi kafilligi bilan ta'minlanadi.

5.2. Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyati (kredit ajratish) kredit qaytarilishining ta'minlanishini belgilovchi hujjatlar belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilgandan va u Bank tomonidan olingandan so'ng kuchga kiradi.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,3 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

Foizlarni belgilangan muddatlarda to'lamanligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4% miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 10%dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda kredit ajratilmaganda, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1% miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 10% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar.

7.2. O'zaro kelishuvga erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan tegishlilik bo'yicha sud tartibida hal etiladi.

8. Boshqa shartlar

8.1. Ushbu shartnomaning shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har bir o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, tomonlar imzolaganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o'zgartirish, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

8.2. Ushbu shartnoma bekor qilinishida Qarz oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni to'liq qaytarishi shart.

8.3. Qarz oluvchini kredit tarixini o'rganish maqsadida, uning kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit axboroti milliy institutining (keyingi o'rinlarda – KAMI) ma'lumotlar bazasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit berilishidan oldin olinadi.

8.4. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8.5. Tomonlarning manzillari o'zgartirilgan hollarda 5 kun muddat ichida albatta bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

8.6. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, taraflarda bir nusxadan saqlanadi.

9. Tomonlarning yuridik manzillari va imzolari

<p align="center">«BANK»</p> <p align="center">Aksiyadorlik tijorat Xalq banki _____ filiali</p> <p>Manzil: _____ viloyati (shahar), _____ tumani _____ ko'chasi _____ uy. MFO _____; INN: _____; X/R: _____ "Contact center" aloqa tel.raqami: (71) 210-20-02</p> <p>_____ xizmatlar bo'limi boshlig'i:</p> <p align="center">_____</p> <p>Bosh buxgalter:</p> <p align="center">_____</p> <p>M.O'.</p>	<p align="center">«QARZ OLUVCHI»</p> <p align="center">_____</p> <p align="center">I.F.Sh</p> <p>Manzil: _____ viloyati _____ tumani _____ QFY, _____ ko'chasi, _____ uy, ____-xonadon. Pasport: _____; _____,20__ yil _____ viloyati _____ tumani IIB _____ tomonidan berilgan. Tel: _____</p> <p align="center">_____</p>
---	--

20__ yil «__» _____ dagi
____ sonli Moliyaviy iste'mol krediti shartnomasiga
1-ilova

**Moliyaviy iste'mol krediti shartnomasiga asosan
qarzni qaytarish jadvali (grafigi)**

Muddatli majburiyatlar bo'yicha kredit summasi (so'z va raqam bilan)	Asosiy kreditni qaytarish sanasi	Foizlarni to'lash sanasi
1.		
2.		
Bank		Qarz oluvchi
_____	_____	
<i>(lavozim, F.I.Sh. va imzo)</i>	<i>(F.I.Sh. va imzo)</i>	
_____	_____	
<i>(bosh buxgalter F.I.Sh., imzo)</i>		
muhr, sana _____ y.	sana _____ y.	

**20__ yil “__” _____ da tuzilgan __-sonli
Moliyaviy iste'mol krediti shartnomasiga
kiritilgan 1-sonli qo'shimcha kelishuv**

20__ yil «__» _____

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki nomidan (**keyingi o'rinlarda – Bank**) 20__ yil __
dagi _____-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ filiali
Chakana bo'limi boshlig'i _____ bir tomondan, hamda bundan buyon matnda «**Qarz
oluvchi**» deb yuritiluvchi, _____ yilda _____ viloyatida tug'ilgan, hozirda
_____ viloyati _____ tumani _____
QFY, _____ ko'chasi, _____-uy, _____-xonadonda istiqomat qiluvchi, 20__ yil «__» _____
_____ viloyati _____ tumani IIB _____
tomonidan berilgan, _____ seriya _____ raqamli pasportga ega bo'lgan fuqaro
_____ ikkinchi tomondan ushbu qo'shimcha kelishuvni quyidagilar haqida
tuzdilar:

1. Moliyaviy iste'mol krediti shartnomasiga quyidagi matnda 3.2.11-band kiritilsin:

“3.2.11. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'ziga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga va ulardan foydalanishga ushbu shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq o'z roziligini berish majburiyatlarini oladi.”

2. Moliyaviy iste'mol krediti shartnomasiga quyidagi matnda 3.3.11-band kiritilsin:

“3.3.11. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Qarz oluvchiga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanish huquqlariga ega.”

3. Shartnomaning qolgan bandlari o'zgarishsiz qoldirilsin.

4. Ushbu qo'shimcha kelishuv taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va shartnomaning amal qilish muddati davomida o'z kuchida bo'ladi.

5. Mazkur qo'shimcha kelishuv Moliyaviy iste'mol krediti shartnomasining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

6. Mazkur qo'shimcha kelishuv bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, taraflarda bir nusxadan saqlanadi.

7. Tomonlarning yuridik manzillari va imzolari

«BANK»	«QARZ OLUVCHI»
Aksiyadorlik tijorat Xalq banki _____ filiali	I.F.Sh
Manzil: _____ viloyati (shahar), _____ tumani _____ ko'chasi _____ uy.	Manzil: _____ viloyati _____ tumani _____ QFY, _____ ko'chasi, _____-uy, _____ -xonadon.
MFO _____; INN: _____;	Pasport: _____; _____ .20__ yil
X/R: _____	_____ viloyati _____ tumani IIB
“Contact center” aloqa tel.raqami: (71) 210-20-02	_____ tomonidan berilgan.
_____ xizmatlar bo'limi boshlig'i: _____	Tel: _____
Bosh buxgalter:	_____

M.O‘

20__yil “__”____da tuzilgan
____-sonli Moliyaviy iste‘mol
kredit shartnomasiga
2-ilova

Axborotni, shu jumladan shaxsiy ma‘lumotlarni va bank sirini o‘z ichiga olgan ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlashga rozilik shartlari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi va “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlariga muvofiq Men, _____

(mijozning to‘liq ismi, familiyasi va otasining ismi)

(keyingi o‘rinlarda-“Mijoz”) quyidagilarga so‘zsiz rozilik bildiram an:

AT “Xalq banki” (keyingi urinlarda-“Bank”) Mijozning shaxsiy ma‘lumotlarini/maxsus shaxsiy ma‘lumotlarini (keyingi o‘rinlarda birgalikda yoki alohida – “shaxsiy ma‘lumotlar” deb yuritiladi), ulardan foydalanish, saklash, aniqlashtirish, yangilash, to‘plash, yig‘ish, qayta ishlash, o‘tkazish, shu jumladan, shaxsiy ma‘lumotlarni qog‘ozda, moddiy tashuvchilarda va elektron shaklda/formatda bank/operatorlar/ma‘lumotlar bazasi egalari/uchinchi shaxslar tizimlari, xizmatlari va/yoki ma‘lumotlar bazalarida transchegaraviy uzatish shaklida, shuningdek ochiq manbalarda tarqatilishiga;

Bank tomonidan Mijozning shaxsiy ma‘lumotlarini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni ushbu Shartlarning 2-bandida ko‘rsatilgan Shaxslarga topshirish (tarqatish) uchun;

mavjud va/yoki olingan, shuningdek kelajakda bevosita Shartlarning 2-bandida ko‘rsatilgan Shaxslardan va/yoki uchinchi shaxslar orqali olingan Mijozning shaxsiy ma‘lumotlarini bank tomonidan to‘plash va qayta ishlash uchun;

Shartlarning 2-bandida ko‘rsatilgan shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi, har qanday bitimlarni tuzish va/yoki bajarish va/yoki texnik xizmat ko‘rsatish/qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq va/yoki bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarning bank tomonidan oshkor etilishi/mijoz (mijozning vakili bo‘lgan shaxs) va bank o‘rtasida, mijoz (mijoz vakili bo‘lgan shaxs) va Shartlarning 2-bandida ko‘rsatilgan Shaxslar o‘rtasida amalga oshirilgan (tugallanishi mumkin bo‘lgan) operatsiyalar. Shu bilan birga, bunday ma‘lumotlarni oshkor qilish tartibi va usullari Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Bankdan, Bank xamkorlaridan har qanday ma‘lumot materiallarini (shu jumladan reklama harakteridagi ma‘lumotlarni), Bank mahsulotlari va/yoki xizmatlari va/yoki takliflari, Bank sheriklaridan telefon, faks va boshqa turdagi aloqalar orqali olish, jumladan, ochiq aloqa kanallari (shu jumladan, SMS-xabarlar, elektron pochta, faks, push-xabarnoma, ovozli xabarlar, masofaviy kirish tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar);

Bank tomonidan Mijozning biometrik ma‘lumotlaridan (shu jumladan tasvirdan) identifikatsiya qilish/autentifikatsiya qilish/ro‘yxatga olish/avtorizatsiya qilish usuli sifati da foydalanish uchun;

Mijoz va hujjatlarni bank tomonidan suratga va video tasvirga olish.

2. Shaxsiy ma‘lumotlarni qabul kiluvchi va bankka uzatuvchi shaxslar:

Kredit tarixi byurolari, sug‘urta kompaniyalari, aloqa operatorlari, pochta aloqasi operatorlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, pensiya jamg‘apmalari, vakillik banklari, protsessing tashkilotlari, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, vakolatli shaxslar, dasturiy ta‘minot egalari, mobil to‘lov ilovalari, milliy va xalkaro hisob-kitoblar (to‘lov tizimlari), uchinchi tomon xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar, mijozning ish beruvchilari (shu jumladan rahbarlar, kadrlar va buxgalteriya bo‘limlari vakillari), mijozga to‘lovlarni amalga oshiruvchi shaxslar (ish haqi, stipendiyalar, ijtimoiy, kompensatsiya va boshqa to‘lovlar) va/yoki tijorat va notijorat tashkilotlari, shuningdek, mijoz (uning vakili) o‘rtasida tuzilgan (tugallanishi mumkin bo‘lgan) har qanday bitimlar/operatsiyalarni tuzish va/yoki bajarish va/yoki texnik xizmat ko‘rsatish/kullab-kuvvatlashga ega bo‘lgan va/yoki aloqador bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar kilent hisoblanadi) va Bank, kilent (klient vakili bo‘lgan shaxs) va Shartlarning ushbu bandida ko‘rsatilgan Shaxslar o‘rtasida.

3. Mijozning shaxsiy ma‘lumotlar - elektron, kog‘oz va/yoki boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan mavzuga tegishli har qanday ma‘lumotlar, ular o‘z ichiga quyidagilarni olishi mumkin (shu jumladan, lekin ular bilan

cheklanmagan holda):

anketani to'ldirish, shuningdek identifikatsiya qilish/autentifikatsiya/ro'yxatdan o'tish/avtorizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar: familiyasi, ismi, otasining ismi; fuqarolik; yashash joyi; millati; shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari; shaxsiy identifikatsiya raqami; sana, joy va tug'ilgan/o'lim tafsilotlari; qavat; portret tasviri (raqamlashtirilgan nusxasi); foto/video; imzo (qo'lda va raqamli); biometrik ma'lumotlar (barmoq izlari, ovoz va yuzning raqamli uzatmasi va boshqalar); identifikatsiya/autentifikatsiya/ro'yxatga olish/avtorizatsiya uchun foydalaniladigan bosma nashrlar, faksimilalar;

oila / ijtimoiy mavqei to'g'risidagi ma'lumotlar: nikohni tuzish / bekor qilish to'g'risidagi guvohnoma ma'lumotlari, turmush o'rtog'ining familiyasi, ismi, otasining ismi, turmush o'rtog'ining pasporti / shaxsiy ma'lumotlari; turmush o'rtog'ining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari; qaramog'ida va (yoki) boshqa oila a'zolarining mavjudligi / yo'qligi; qarindoshlik darajasi, boshqa oila a'zolarining, karamog'ida gilarining familiyasi, ismi, otasining ismi va tug'ilgan sanasi; qonuniy vakili sub'ekt bo'lgan jismoniy shaxslar ro'yxati;

aloqani ta'minlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, shuningdek, identifikatsiya / autentifikatsiya / ro'yxatdan o'tish / avtorizatsiya: yuridik manzil (ro'yxatdan o'tish joyi), yashash joyi (doimiy yoki asosan yashaydigan joy), ish joyi va lavozimi; uyali abonent raqami / telefon raqami (uy, ish, uyali), elektron pochta manzili va boshqalar;

bank tomonidan xizmatlar ko'rsatish (tranzaksiyalarni amalga oshirish, bitimlar tuzish, harakatlarni amalga oshirish) bilan bog'liq ma'lumotlar: shartnomalar (shartnomalar) matnlari, ularga qo'shimcha kelishuvlar, bayonotlar va roziliklar, yozishmalar, operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar (to'lov, naqd pul va boshqa hujjatlar), mulkka huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, to'lov kartalari va bank hisob raqamlari va boshqalar;

ma'lumoti, kasbiy faoliyati, xizmat lavozimi, ishchanlik obro'si to'g'risidagi ma'lumotlar:

kasbi, malakasi, lavozimi va boshqa ma'lumotlar;

yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, litsenziyalangan / ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya / ruxsatnoma to'g'risidagi ma'lumotlar, jinoiy / ma'muriy javobgarlikka tortilgan sudlanganligi / sudlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

mijozning to'lov qobiliyati to'g'risidagi ma'lumotlar: nafaqa, soliq va boshqa chegirmalar, soliqlar va byudjetga to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar, karzlar to'g'risidagi ma'lumotlar, mansabdor shaxslar, o'zini o'zi e'lon qilgan va boshqa daromadlar va harajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar; bank / shaxsiy / balans xisobvaraklarining mavjudligi / yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar; pul va qimmatli qog'ozlar, shu jumladan ishonchli boshqaruvda va ishonchli saklashda mavjudligi / yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar (shu jumladan shartnoma ma'lumotlari, hisob raqamlari, to'lov kartalari raqamlari, to'lov kartalaridagi kod ma'lumotlari, sotib olingan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlar, garov to'g'risidagi ma'lumotlar, qoldiqlar, summalar) va xisobvaraklar buyicha harakatlar, to'lov kartalarining turlari, limitlar va boshqa ma'lumotlar);

xizmatlarning to'g'ri sifati va uni yaxshilash, takdim etilayotgan xizmatlarni shaxsiylashtirish, shu jumladan masofaviy xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar: taqdim etilgan xizmatlar tarixi, foydalanilgan qurilma (mobil telefon, planshet va boshqalar) va sensorlar xaqidagi ma'lumotlar, qurilma, atrofidagi ob'ektlar haqida ma'lumot (masalan, brauzer va operatsion tizim haqida ma'lumot, telemetriya, joylashuv, masofaviy kirish tizimidan foydalanganda mobil qurilmadagi kontaktlar ro'yxati va boshqalar);

mulkiy holati to'g'risidagi ma'lumotlar: mijozning mulki to'g'risidagi ma'lumotlar, identifikatsiya ma'lumotlari, ro'yxatdan utganligi (yo'qligi) to'g'risidagi ma'lumotlar; mulkning umumiy xususiyatlari; narx; davlat ro'yxatidan o'tkazish ma'lumotlari, VIN kodi (avtomobilning harf-raqamli kodi) va boshqa ma'lumotlar;

bank faoliyati uchun zarur bo'lgan bank, sug'urta, soliq, shaxsiy ma'lumotlar, shuningdek, qonun bilan himoyalangan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlar;

bank tomonidan talab qilindigan boshqa ma'lumotlar, shu jumladan ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun, (mijozning yuridik shaxslarning kapitalidagi ishtiroki - ishtirok ulushi, ulushlar soni (ulushi); egallab turgan lavozimlari to'g'risidagi ma'lumotlar). Shuningdek, bunday ma'lumotlarga o'zgartirishlar va / yoki qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi ma'lumotlar; mijoz vakili bo'lgan yuridik shaxslarning ro'yxati, bankning ma'lumotlar bazasi operatorlari, bank kontragentlari, uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlari uchun;

yuqoridagi ma'lumotlarning o'zgarishi va / yoki qo'shimcha kiritilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

4. Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi:

Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini, bank tomonidan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni himoya qilish rejimiga o'xshash rejimda himoya qilish to'g'risida bank tomonidan xabardor qilingan;

shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga berilgan yozma rozilik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan xollarda yoki Bank oldidagi bajarilmagan majburiyat mavjud bo'lsa, bekor qilinishi mumkin emas;

Bank O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda, shu jumladan boshqa banklarda va / yoki tashkilotlarda qarzni undirish bilan bog'lik bo'lmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish maqsadida mijozning roziligsiz shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ta'kidlangan;

Bank mijozning va har qanday uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash (qabul qilish) va qayta ishlash, shuningdek, mijozning shaxsiy ma'lumotlarini Shartlarda ko'rsatilgan uchinchi shaxslarga o'tkazish (shu jumladan transchegaraviy o'tkazish) huquqiga ega. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, talablari va xalqaro huquq talablarini (xalqaro shartnomalar talablarini) hisobga olgan holda, shaxsiy ma'lumotlarni hammaga ochiq manbalarda tarqatish;

Bankka O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda mijozning shaxsiy ma'lumotlari bilan har qanday harakat (operatsiya), shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga rozilik berish yoki kombinatsiyani amalga oshirish huquqini beradi. Bunday harakatlar (operatsiyalar), shu jumladan avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish holda yoki ulardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan harakatlar, biroq ular bilan cheklanmagan holda, yig'ish, qayta ishlash, qayd qilish, nusxalash, zaxiralash, himoya qilish, saralash, tizimlashtirish, to'plash, saklash, Bank ichida va undan tashqarida (xavfsizlik va maxfiylik talablariga muvofiq), aniqlashtirish (o'zgartirish, yangilash), foydalanish, tarqatish (o'tkazish, kirishni ta'minlash, shu jumladan mijozning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash huquqi bilan uchinchi shaxslarga o'tkazish, shu jumladan transchegaraviy uza tish), shaxsni aniqlash, blokirovka qilish, yo'q qilish, shu jumladan, ushbu harakatlarni Bank nomidan uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirish, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga zid bo'lmasa;

shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga rozilik, shartda ko'rsatilgan uchinchi shaxslarga mijozning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlashga rozilik, mijoz tomonidan berilganligini tasdiqlovchi dalil sifatida berilishi mumkin;

Mijozning shaxsiy ma'lumotlari Bank tomonidan xorijiy davlatlar hududiga o'tkazilishi mumkin.

5. Mijoz quyidagilarni tushundi va rozi bo'ldi:

Bank, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Bankning ichki hujjatlarida, Bank bilan huquqiy munosabatlar tugaligandan keyin belgilangan muddatlarda Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini istalgan tashuvchida saqlaydi;

Bank, taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirishi, shuningdek hujjatlarda ko'rsatilgan har qanday ma'lumot bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olishi mumkin;

Mijoz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank xizmatlarini ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarini takdim etishdan bosh tortgan taqdirda, Bank, mijozga ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish va xizmatlar ko'rsatishni rad etishga majbur bo'ladi;

Bank, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muddatlarda, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga berilgan rozilik amal qilish muddatini belgilaydi;

Bank, Shartlarning talablarini mustaqil ravishda belgilaydi va ularni bir tomonlama to'ldirishi / o'zgartirishi mumkin, Shu bilan birga, Bank Shartlar talablaridagi o'zgarishlar kiritish to'g'risida bunday o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 5 (besh) kalendar kuni oldin Mijozni Bank uchun kulay bo'lgan har qanday usulda xabardor qiladi. Belgilangan muddat tugaganidan so'ng, Mijoz va Bank Shartlardagi qoidalarni o'zgartirilgan tahrirda qabul qiladi.

Bankka Mijozning (mijoz vakili bo'lgan shaxsning) shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlash maqsadlariga erishish uchun zarur va yetarli bo'lgan Mijozning (mijoz vakili bo'lgan shaxsning) shaxsiy ma'lumotlarni ro'yxatini mustaqil ravishda aniqlash va o'zgartirish huquqi berildi.

6. Axborotni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga rozilik Shartlar bilan o'zgartirilgan holda, mijozga (mijoz vakili bo'lgan shaxs) quyidagi har qanday usulda takdim etilishi (tasdiqlanishi) mumkin. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga zid kelmaydigan, lekin ular bilan cheklanmagan holda:

kog'ozda, yozma ravishda;

elektron raqamli imzo bilan, imzolangan elektron hujjat shaklida;

rozilikni tasdiqlashga imkon beradigan har qanday boshqa usulda (telefon yoki boshqa aloqa vositalari orkali, Internet-resurslarning maxsus ajratilgan maydonlariga tegishli belgilar quyish, axborot tizimlari, apparat va dasturiy ta'minot tizimlari, dasturiy ta'minot yoki xizmat ko'rsatish dasturlarida harakatlarni amalga oshirish orqali); rozilikni bildiruvchi harakatlar sifatida belgilangan mahsulotlar (masalan, foydalanishni davom ettirish).

*Axborotni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni
va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash,
qayta ishlashga rozilik shartlarining
ilovasi*

Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga rozilik

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi va "Bank siri to'g'risida"gi Qonunlariga muvofiq, AT "Xalq banki" va unga aloqador shaxslardan shaxsiy ma'lumotlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Kredit ma'lumotlarining reestri, "O'zbekiston Respublikasi Kredit byurosi" MChJdan maxsus shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga zarur ma'lumotlarni olish va taqdim etish, to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash), foydalanish, takdim etish, uzatish, blokirovka qilish, depersonalizatsiyaga rozilik beraman.

Shuningdek, Bankning men haqimda va har qanday tashqi manbalardan mening daromadlarim haqidagi ma'lumotlarni olishiga, bankka o'zim haqimda bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni Bankning sheriklari va/yoki kontraгентlariga, shuningdek, har qanday davlat organlariga, tijorat va/yoki notijorat tashkilotlariga taqdim etish va berishga roziligimni bildiram.

Rozilik, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, ularni undirish va qayta ishlash maqsadlariga erishilgunga qadar yoki undan uzoqroq muddatgacha amal qiladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni, shu jumladan bank va boshqa qonun bilan himoyalangan sirlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga mijozning roziligini imzolash orqali men quyida gilarni tasdiqlayman:

Bankning veb-saytida quyidagi manzilda joylashtirilgan ma'lumotlarni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga rozilik berish shartlari bilan tanishdim: <http://>_____ (joylashtirish sahifasini ko'rsatib)_____ /rahbar tomonidan taqdim etilgan. Bank filialida (keyingi o'rinlarda - Shartlar), ularning matnini tushundim va ular bilan to'liq roziman;

Shartlar mazmuniga muvofiq men haqimda, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar, bank va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga rozilik beraman;

Bank tomonidan Shartlar koidalari bilan tanishish uchun zarur vaqt ajratilganligini tasdiqlayman;

Shartlarda nazarda tutilgan talablarni o'zgartirish koidasiga rozilik beraman;

Men, ushbu Rozilik va Shartlar jami men hakimda, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar, bank va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga javob beradigan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashga yozma rozilik ekanligini tushunaman.

(Mijozning to'lik ismi sharifi va shaxsiy imzosi o'z qullari bilan qo'yiladi)

AT "Xalq banki"

(Rozilikni qabul qilgan shaxsning ismi-sharifi-lavozimi va imzosi)

“___” _____ 20___y.